

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



SOLIQ NAZORATI VA TRANSFERT NARXNI BELGILASHDA SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI

ORCID: 0009-0007-9907-5262

Abdiev Jaxongir Ibragimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahondagi nufuzli kompaniyalarda moliyaviy holatni barqarorlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida "boshqaruvning xalqaro standartlariga o'tish, klaster va kooperatsiya tizimidagi subyektlarda moliyaviy bitimlar tuzish jarayonida transfert baholardan foydalanish, operasion segmentlar bo'yicha moliyaviy va boshqaruv hisobotlarini taqdim etish" lozimligi belgilab qo'yilgan. Xalqaro tajriba mazkur muam-molarning nazariy-uslubiy va tashkiliy jihatlari bo'yicha etarlicha axborotlar bazasi shakllantirilganligi, bu borada maxsus ilmiy-innovasion tadqiqotlar olib borilayotganligiga guvohlik bermoqda. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, "Buyuk Britaniya va AQSh kompaniyalari o'rtasida AQSh Federal soliq xizmati (IRS) tomonidan savdo bitimlari jarayonida transfert bahoni shakllantirishda royalti va boshqa xarajatlarni noqonuniy taqsimlash natijasida olingan 3,4 mlrd. dollarlik daromadni Angliyada joylashgan Bosh korxonaga qaytarilganligi" masalaning jiddiy va muhimligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: soliq, fiskal siyosat, budget, soliq ma'muriyati, soliq salohiyati, normativ tahlil, ijobiy tahlil, soliq yuki, vakillik soliq stavkasi, o'tacha stavka, soliq hisoboti, soliq tushumlari, tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, bozor narxi, boshqaruv hisobi, transfert baho.

Abstract: In this article, in order to stabilize the financial situation of prestigious companies in the world, create new jobs and achieve economic growth, it is necessary to "transition to international standards of management, use transfer pricing in the process of concluding financial transactions in entities of the cluster and cooperative system, and present financial and management reports on operational segments." . International experience testifies to the fact that a sufficient information base has been formed on the theoretical, methodological and organizational aspects of these problems, and special scientific and innovative research is being conducted in this regard. According to the research, "US Federal Tax Service (IRS) received 3.4 billion dollars obtained as a result of illegal allocation of royalties and other costs in the process of trade deals between UK and US companies in the process of formation of transfer pricing." that dollar income was returned to the main company located in England" indicates the seriousness and importance of the issue.

Key words: tax, fiscal policy, budget, tax administration, tax potential, normative analysis, positive analysis, tax burden, representative tax rate, average rate, tax reporting, tax revenues, analysis, positive analysis, tax burden, market price, management account, transfer price.

Аннотация: В данной статье для стабилизации финансового положения престижных компаний мира, создания новых рабочих мест и достижения экономического роста необходимо "перейти на международные стандарты управления, использовать трансфертное ценообразование в процессе заключения финансовых сделок на предприятиях". в кластерной и кооперативной системе, а также представлять финансовые и управленческие отчеты по операционным сегментам". Международный опыт свидетельствует о том, что по теоретическим, методологическим и организационным аспектам этих проблем сформирована достаточная информационная база и в этом направлении проводятся специальные научные и инновационные исследования. Согласно исследованию, "Федеральная налоговая служба США (IRS) получила 3,4 миллиарда долларов в результате незаконного распределения роялти и других расходов в процессе торговых операций между британскими и американскими компаниями". что долларовый доход был возвращен основной компании, расположенной в Англии", указывает на серьезность и важность вопроса.

Ключевые слова: налог, фискальная политика, бюджет, налоговое администрирование, налоговый потенциал, нормативный анализ, положительный анализ, налоговая нагрузка, репрезентативная налоговая ставка, средняя ставка, налоговая отчетность, налоговые поступления, анализ, позитивный анализ, налоговое бремя, рыночная цена, управленческий учет. , трансферная цена.

KIRISH

Transfert narxlar globallashuv va xalqaro savdoning kuchayishi sharoitida ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, respublika ichidagi savdoda soliqni to'lamalik yoki kam to'lash maqsadida transfert narxni shakllantirish davlat budgetiga tushishi lozim bo'lgan soliqlarni tushmasligiga olib kelishida ham dolzarbligi ko'rinadi.



Transfert narxni tartibga solishning bir qismi sifatida O'zbekistonda transfert narx shakllanishi nazoratini amalda qo'llash hamda yangi qoidalarni o'rganib borish va qo'llash, O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish muhim hisoblanib, tadqiqot ishining dolzarbligini va tanlangan mavzuning hozirgi davrda echimini kutayotgan muhim mavzuga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transfert narxni belgilashda ilmiy tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda tadqiqot yo'nalishini sifatida o'rganilib kelinmoqda.

B.Xasanov fikriga ko'ra transfert baho ciyosati masalasi bo'yicha moliyachi va marketologlar o'rtasida uni shakllantirishga nisbatan ikki muqobil yondashuv – xarajatlar va qiymat yondashuvlari sohasida bahs-munozara kelib chiqadi deb takidlagan.

Transfert baholar to'g'risida mulohaza yuritishda uning bozor baholari bilan farqli jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Amaldagi Soliq kodeksining "Bozor narxlari to'g'risidagi umumiy qoidalar" moddasida bitimlarning narxlari, ushbu bitimlar taraflarining daromadlari va xarajatlari bozor narxlari sifatida tan olinishi uchun quyidagi talablar bajarilishi ta'kidlangan: mustaqil shaxslar o'rtasidagi bitimlar, birja savdolarining natijalariga ko'ra tuzilgan bitimlardagi shartnomaviy narxlar bandi yoki narxlarni kelishish bayonnomasi, soliq to'lovchi soliq (zarar) summalari mustaqil tuzatish kiritishni amalga oshirmagan bo'lsa va qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa holatlarda bozor narxi deb topiladi.

Soya-Serko A.A. transfert baholarni ustidan o'rnatilgan soliq nazoratiga ishora qilib, ularni iqtisodiy adabiyotlarda shubhali yoki g'ayrioddiy baho deb qaralayotganini e'tirof etadi. Uning fikricha, transfert bahoga berilgan ta'rif o'rinni bo'lib, bu holat transfert baholarning tijorat maqsadlariga erishish uchun bozordan tashqarida tomonlarning kelishuviga muvofiq aniqlanishi hamda aynan soliq yukini pasaytirish maqsadida qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Avrova (2007) ta'kidlashicha boshqaruv hisobi – bu boshqarishning rejalashtirish, tartibga solish, tashkil-lashtirish va rag'batlantirish kabi funksiyalari bilan bir qatorda bo'lgan asosiy funksiyasidir. Bu shuni anglatadiki, boshqaruvni takomillashtirish, bozor mexanizmini yaratish buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Bogatin (2007) boshqaruv hisobini ishlab chiqarishni boshqarishning bir qismi sifatida tavsiflab, u korxonani boshqarishda kompleks ma'lumotlar bilan ta'minlashni amalga oshirish boshqa turdagi xizmatlar bilan birgalikda korxonaning normal faoliyat yuritish jarayoniga zarur bo'lgan infratuzilmasi bo'lib hisoblanadi.

Druri (2003) boshqaruv hisobini menejerlarga tashkilot ishlash ko'rsatkichlarini aniqlash, rejalashtirish, nazorat qilish va baholashda zarur bo'lgan axborotni etkazib berishda ko'radi. U o'z ishlarida boshqaruv hisobining quyidagi pozitsiyalariga e'tibor qaratadi;

- boshqaruv hisobining maqsadi;
- hisob axboroti foydalanuvchilari;
- boshqaruv va moliyaviy hisob tizimlarining qiyosiy xususiyatlari;
- qaror qabul qilish jarayoni;
- transfert bahoni shakllantirish;
- boshqaruv jarayoni;
- boshqaruv jarayonida buxgalter-tahlilchilarning roli.

Popova (2014) soliq potensialini baholashning yagona metodikasini ishlab chiqishda quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilish zarurligini ko'rsatib o'tgan: donor hududlar va dotasion hududlar o'rtasida hududlararo transfertlar taqsimlanishi; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining ishlab chiqilishi; amaldagi soliq tizimining miqdoriy baholanishi va uni yanada rivojlantirish yo'llari mavjudligi; hududlar darajasida tarmoqlar kesimi, shuningdek, soliq potentsiali dinamikasining shakllanish pozitsiyasi bo'yicha taqqoslashdan foydalanish imkoniyatlari; soliq raqobati pozitsiyasidan hududlarni baholash imkoniyatini beruvchi soliq potentsialini davlatlararo taqqoslanishi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Transfert narxni belgilashda soliq nazoratining xalqaro tajribasi quyidagicha.

Aytish kerakki, transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xalqaro hujjatlar mavjud emas. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan transmilliy korxonalar va soliq organlari uchun transfert narxlar bo'yicha qo'llanma – Transfer pricing guidelines for multinational enterprises and tax administrations (keyingi o'rinlarda – Qo'llanma) ishlab chiqilgan. Bu tavsiyaviy tusdagi hujjat bo'lsa-da, uning qoidadari turli mamlakatlar, jumladan IHTT a'zosi bo'lmagan davlatlar milliy qonunchiligida ham o'z aksini torgan. Hozirda amalda bo'lib turgan Qo'llanma 1979-yilda qabul qilingan Transfert narxlar bo'yicha hisobotning yangi tahriri hisoblanadi. Qo'llanma 2010-yil 22-iyulda tasdiqlangan.



Qo'llanmada soliq solish maqsadida narxlarni aniqlash usullari ikki guruhga ajratilgan: an'anaviy usullar hamda tahlil va foydani taqsimlashga asoslangan usullar.

Qo'llanma transfert narxlarni aniqlashning quyidagi usullaridan foydalanishni tavsiya etadi:

An'anaviy usullar:

- Bozor narxi usuli (comparable uncontrolled price method);
- Qayta sotish narxi usuli (resale price method);
- Joriy xarajatlar usuli (cost-plus method);

Tahlil va foydani taqsimlashga asoslangan usullar:

- Bitim bo'yicha toza marja usuli (Transactional net margin method);
- Bitim bo'yicha foydani taqsimlash usuli (Transactional profit split method).

Transfert narxlar hosil qilinishini aniqlashning qaysi usulini tanlash ishning aniq holatiga bog'liq bo'lib, har bir usulning afzallik va kamchilik tomonlari, ularni qo'llash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash imkoniyati, bitimlarni o'zaro solishtirish darajasi singari faktorlar e'tiborga olinadi. Qo'llanmaning yuridik tabiati to'g'risida mulohaza qiladigan bo'lsak, IHTT to'g'risida konvensiyaning 5 (b)-moddasiga ko'ra majburiy xususiyatga ega emas va IHTTga a'zo davlatlarga qo'llanmaga rioya qilish tavsiya etiladi xolos. Shunday bo'lsa-da, IHTTga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar tomonidan transfert narxlar bo'yicha qonunchilikni ishlab chiqishda Qo'llanmadan keng foydalanib kelinmoqda. Shuningdek transfert narxlar bo'yicha nizolarni ko'rib chiqish davomida ko'pgina mamlakatlar sudlari Qo'llanmadan foydalangan holda mamlakat transfert narxlar qonunchiligini sharhlashda foydalanmoqdalar.

Masalan, Irlandiya, Meksika, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Latviya, Peru va Ruminiya davlatlari o'zlarining transfert narxlar bo'yicha milliy qonunchiligida Qo'llanmadan mazkur qonunlarni sharhlash maqsadida foydalanish to'g'risida qoidalarni kiritganlar.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida mazkur Qo'llanma qoidalarini inobatga olish ko'zda tutilmagan.

Transfert narxlarni tartibga solish bo'yicha AQSh tajribasi.

Transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan milliy qonunchiliklar tarixiga nazar solsak, bu sohada AQSh boshqa davlatlarga nisbatan ancha ilgari ketganiga guvoh bo'lamiz. AQSh ichki daromad kodeksi (Soliq kodeksi) 482-qismida transfert narxlarni tartibga soladigan qoidalar belgilangan. Mazkur 482-qism 1920-yillarda qabul qilingan. Unda soliq organlariga firmalararo tijorat munosabatlarida soliq to'lashdan qochish maqsadida past narxlar o'rnatilgan bo'lsa, soliq organlariga narxlarga tuzatish kiritish hamda ularni qayta hisoblab chiqish va soliq solish bo'yicha vakolatlar berilgan. Ushbu 482-qismda transfert narxlarni aniqlashning maxsus usullari belgilab berilgan. Mazkur usullar qo'llanmada belgilangan usullarga o'xshash. Chunki AQShda transfert narxlar bo'yicha qonun hujjatlari avvalroq ishlab chiqilgan hamda undagi qoidalar 1960-yillarda Qo'llanmani ishlab chiqishda ham foydalanilgan.

AQShning transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchiligi soliq to'lovchilarni o'zaro aloqador shaxslar bilan bitimlar tuzish davomida transfert narxlar shakllanishining oldini olish maqsadida Ichki daromad xizmati bilan Dastlabki narxlar bo'yicha kelishuv (Advance Pricing Agreement (APA)ga kirishishi mumkin. Mazkur kelishuvlarni amaliyotga kiritish ham AQShda boshlangan va boshqa mamlakatlarning qonunchiligiga inkorporasiya qilinishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Mazkur holda o'zaro aloqador kompaniyalar bilan bitimlar tuzayotgan kompaniya soliq organlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazilishi va hujjatlar tayyorlashning o'rniga soliq organi bilan kelishuv tuzadi. Bu esa kompaniyalar uchun ham, soliq xizmati organlari uchun ham kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish xarajatlarning oldini oladi.

Buyuk Britaniyaning transfert narxlarini tartibga solish qoidalari.

Buyuk Britaniyaning amaldagi transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchiligi 2010-yilda qabul qilingan Soliq solish to'g'risida qonun (Taxation Act (International and Other Provisions, Xalqaro boshqa qoidalar) bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun kompaniyalar tomonidan transfert narxlarni qo'llagan hollarda soliq xizmati organlari tomonidan transfert narxlar shakllanishini hisoblab chiqish usullari, narxlar bilan manipulyatsiya qilish hollari mavjud bo'lgan hollarda narxlarga tuzatishlar kiritish asoslari va usullarini belgilab beradi. Buyuk Britaniya qonunchiligida ham kompaniyalar va soliq xizmati organlari o'rtasida Dastlabki narxlar bo'yicha kelishuv (Advance Pricing Agreement - APA)ga kirishishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Rossiya Federasiyasi qonunchiligi.

Rossiya Federasiyasida transfert narxlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchilikning qabul qilinganiga unchalik ko'p bo'lgani yuq. 2011-yil 18-iyulda "Soliq solish maqsadida narxlarni aniqlash prinsiplarini takomillashtirish sababli Rossiya Federasiyasining ba'zi qonunlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida"¹ qonun qabul qilingan. Mazkur qonun bilan Rossiya Federasiyasi Soliq kodeksiga yangi – V.1. O'zaro aloqador shaxslar.

1 Федеральный закон от 18 июля 2011 г. N 242-ФЗ "О внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации по вопросам осуществления государственного контроля (надзора) и муниципального контроля"



Narxlar va soliq solishning umumiy qoidalari. O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuziladigan bitimlar bo'yicha soliq nazorati Narxlarni shakllantirish bo'yicha kelishuv" bo'limi kiritilgan. Soliq kodeksiga kiritilgan mazkur qo'shimchalar Qo'llanmada keltirilgan tavsiyalarga mos keladi. Yangi kiritilgan qoidalar transfert narxlardan foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshirishning samaradorligini oshirishga bag'ishlangan. Kiritilgan o'zgartirishlar o'zaro aloqador shaxslar tushunchasini kengaytirib berdi. O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuziladigan bitimlar nazorat qilinuvchi bitimlar deb tan olingan. Qonunchilik, shuningdek, nazorat qilinuvchi bitimlarning boshqa turlarini ko'rsatib o'tadi.

O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuzilgan bitimlardagi daromadlarni aniqlashning quyidagi usullarini qo'llash belgilab qo'yilgan:

- Solishtirma bozor narxlari usuli;
- Qayta sotish narxi usuli;
- Xarajatlar usuli;
- Solishtirma rentabellik usuli;
- Foydani taqsimlash usuli.

Transfert narxlar yuqoridagi usullarni qo'llagan holda aniqlanadi. Qonunchilikda ikki yoki undan ortiq usullarning kombinasiyasidan foydalanishga ruxsat beriladi. Soliq kodeksi soliq to'lovchilarning soliq organlari talabiga binoan muayyan bitim bo'yicha hujjatlarni taqdim etish majburiyatini belgilab qo'ygan. Mazkur hujjatlar transfert narxlar qo'llanilishini aniqlash uchun foydalaniladi. Qonunchilik soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar turini belgilab beradi. Shuni aytib o'tish muhimki, Rossiya Federasiyasi Soliq kodeksida transfert narxlarni nazorat qilish soliq tekshiruvining yangi turi hisoblanadi. O'zaro aloqador shaxslar o'rtasida bitimlar tuzilishi bilan bog'liq soliqlarni hisoblab chiqish va to'lashning to'laligini tekshirish o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida shunday bitimlar tuzilganda amalga oshiriladi. Agar o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida transfert narxlarni qo'llash soliqlar o'z vaqtida to'lanmasligiga olib kelsa, bu to'lanmagan soliqning 40% miqdorida lekin 30 000 rubldan kam bo'lmagan summada jarima to'lashga olib keladi. Agar soliq to'lovchi soliq organlariga mazkur narxlarning bozor narxlari ekanligini asoslovchi hujjatlarni taqdim etadigan bo'lsa yoki soliq organlari yoki soliq organlari bilan Narxlarni shakllantirish to'g'risida bitim tuzgan bo'lsa, mazkur jarimani to'lashdan ozod qilinadi. Rossiya Federasiyasi soliq qonunchiligi ham soliq solish maqsadida narxlarni shakllantirish to'g'risida kelishuv tuzish imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyatdan faqatgina qonun bo'yicha yirik soliq to'lovchi maqomiga ega bo'lgan soliq to'lovchilar foydalanishi mumkin. Kelishuv soliq to'lovchi hamda davlat soliq organi o'rtasida tuziladi hamda unda kelishuv tuzilgan muddat davomida nazorat qilinuvchi bitimlar bo'yicha narxlarni belgilash va (yoki) narxlarni shakllantirishni aniqlash usullarini qo'llash tartibi nazarda tutiladi.

Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi.

MDH davlatlari o'rtasida transfert narxlarni tartibga solish bo'yicha Qozog'iston Respublikasining tajribasi boshqa davlatlarnikiga nisbatan ko'proqdir. Qozog'iston "Transfert narxlar to'g'risida"gi qonunni 2008-yilda qabul qilgan². Bu mamlakatda transfert narxlarni belgilovchi qoidalar Soliq kodeksining bir qismi emas, balki alohida qonun hujjati sifatida qabul qilingan. Mazkur qonun transfert narxlarni nazorat qilishda nafaqat o'zaro aloqador shaxslar o'rtasidagi bitimlarda, balki boshqa turdagi bitimlar hamda Qozog'iston Respublikasi hududida tuziladigan va bevosita xalqaro tijorat operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Qozog'iston Respublikasining transfert narxlar bo'yicha qonunchiligi Qo'llanmada keltirilgan tavsiyalarga mos keladi. Mazkur qonunning 12-moddasiga asosan bitimlardagi bozor narxlarini aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- 1) solishtirma nazorat qilinmaydigan narxlar usuli;
- 2) xarajatlar plyus usuli;
- 3) qayta sotish narxi usuli;
- 4) foydani taqsimlash usuli;
- 5) sof foyda usuli.

Nazorat qilinuvchi bitimlar bo'yicha narxlarda bozor narxlaridan boshqacha narx qo'llaniladigan bo'lsa, vakolatli organlar bitim tomonlariga nisbatan tekshiruv o'tkazishlari mumkin va mazkur tekshiruv natijasiga ko'ra vakolatli organlar soliq solish bilan bog'liq obyektlarga tegishli tuzatishlar kiritadilar.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, transfert narxlarni shakllantirish orqali o'zaro aloqador shaxslar tomonidan soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning aniq tavsiyalari ishlab chiqilgan hamda mazkur tavsiyalarga tayangan holda ko'p davlatlarda, shuningdek, MDH davlatlarida soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurashish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Transfert narxning rivojlanish tarixi XX asr boshlariga to'g'ri keladi, o'shanda kapitalizmning rivojlanishi jadal rivojlanib, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bir korxonaning bo'linmalari o'rtasida tovar va xizmatlar almashinuvini rag'batlantirgan. Ushbu bosqichda transfert narxlar tushunchasi hali mavjud emas edi, lekin uning mohi-

2 Закон Республики Казахстан от 5 июля 2008 года № 67-IV "О трансфертном ценообразовании"



yati allaqachon aniq ko'rinib turardi. Keyinchalik, kompaniya ichidagi ayirboshlash tendensiyasi rivojlanib borar ekan, yagona qonunchilik bazasini va narxlarni belgilash metodologiyasini yaratish zarurati paydo bo'la boshladi, uning asosida bunday bitimlar uchun narx belgilanadi. Amerika qo'shma shtatlari qonun hujjatlarida transfert narxlari tamoyillarini kiritgan birinchi mamlakat bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida transfert narx tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabr-dagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-599-sonli Qonuni³ bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga kiritildi. Soliq kodeksi 2020-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Bunda transfert narxlarga bag'ishlangan Soliq kodeksining VI bo'limi 2022-yil 1-yanvardan amalga kiritilishi belgilangan. Hozirgi vaqtda o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslar o'rtasida hamda nazorat qilinadigan bitimlar doirasida shakllanadigan narxning bozor narxlariga muvofiqligini o'rganish muammosi juda dolzarbdir.

Soliq kodeksida transfert narx va transfert narxni belgilash tushunchalariga tarif berilgan bo'lib, unga muvofiq:

- o'zaro aloqador taraflar o'rtasidagi bitimlarda shakllanadigan va (yoki) mustaqil shaxslar o'rtasida bitimlar tuzilayotganda taqqoslanadigan iqtisodiy sharoitlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan xolis tarzda shakllanadigan narxdan farq qiladigan narx ushbu Kodeks maqsadida transfert narx deb tushuniladi.

- o'zaro aloqador taraflar faoliyatining mustaqil shaxslar tomonidan taqqoslanadigan iqtisodiy sharoitlarda olinishi mumkin bo'lgan sharoitlar va natijalardan farq qiladigan tijoratga oid va (yoki) moliyaviy sharoitlar va (yoki) natijalar ushbu Kodeksning maqsadida transfert narxni belgilash deb tushuniladi.

Soliq kodeksining V bo'limiga muvofiq soliq nazorati 2 xil shaklda ya'ni soliq monitoringi va soliq tekshiruvlari shaklida o'tkaziladi. O'z navbatida soliq tekshiruvlari – kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi turlariga bo'linadi.

Soliq kodeksining VI bo'limiga muvofiq transfert narxni belgilashda soliq nazorati esa Soliq kodeksining 194-moddasida belgilanganidek, transfert narxni belgilashda soliq nazorati doirasida nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan soliqlarning to'liq hisoblab chiqarilishi va to'lanishi tekshiruvi turi bo'yicha o'tkaziladi.

Nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan soliqlarning to'liq hisoblab chiqarilishi va to'lanishi tekshiruvi (keyingi o'rinlarda – tekshiruv deb yuritiladi) Soliq kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan uning joylashgan eri bo'yicha o'tkaziladi.

Tekshiruv Soliq kodeksining 182-moddasiga muvofiq yuborilgan nazorat qilinadigan bitimlar haqidagi bildirishnoma yoki hududiy soliq organining xabarnomasi asosida, shuningdek soliq tekshiruvini o'tkazish natijasida nazorat qilinadigan bitim aniqlangan taqdirda o'tkaziladi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'iga oid qismi bo'yicha tekshiruv, agar bitimning taraflaridan biri tegishli soliq to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo'lsa, amalga oshiriladi. Transfert narxni belgilashda tekshiruvda yuqorida qayd etilgan soliq turlari bo'yicha soliq summaları kamaytirilganligi yoki zararining summasi ko'paytirilganligi aniqlangan taqdirda, Soliq qo'mitasi tegishli soliq bazasiga va (yoki) soliq summasiga tuza-tishlar kiritishni amalga oshiradi. Mazkur tekshiruvni o'tkazish Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi yoki hududiy soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan soliq nazoratining predmeti bo'lishi mumkin emas. Soliq nazoratining transfert narxlarni belgilash yo'nalishi yuqorida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasida qonunchiligida yangi yo'nalish hisoblanadi. Soliq kodeksining 193-moddasida ushbu mod-daning birinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlar soliq to'lovchidan nazorat qilinadigan bitimlar tuzilgan kalendar yildan keyingi yilning 1 iyunidan keyin Soliq qo'mitasi tomonidan talab qilinishi mumkinligi belgilangan.

Bugungi kunga qadar mazkur yo'nalishda tekshiruvlar o'tkazilmagan. Soliq kodeksining qoidalarida quyi-dagi muammolar mavjud deb hisoblaymiz:

1. Soliq kodeksining 194-moddasida tekshiruv Soliq kodeksining 182-moddasiga muvofiq yuborilgan nazorat qilinadigan bitimlar haqidagi bildirishnoma yoki hududiy soliq organining xabarnomasi asosida, shu-ningdek soliq tekshiruvini o'tkazish natijasida nazorat qilinadigan bitim aniqlangan taqdirda o'tkazilishi belgi-langan. Soliq kodeksining 182-moddasida soliq to'lovchilar soliq organlarini kalendar yilda o'zlari tuzgan nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risida xabardor qilishi shartligi hamda xabarnoma soliq to'lovchi tomonidan o'zi hisobda turgan joydagi soliq organiga nazorat qilinadigan bitimlar tuzilgan kalendar yilga oid yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatidan kechiktirmay yuborilishi belgilangan. Yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddati xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar uchun hisobot yilidan keyingi yilning 25 martidan va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun hisobot yilidan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay taqdim etilishi belgilangan.

Qonunchilikda doimiy muassasalar va jismoniy shaxslar uchun xabarnomani taqdim etish muddati belgi-lanmagan bo'lib, lekin doimiy muassasalar va jismoniy shaxslar tomonidan ham nazorat qilinadigan bitimlar amalga oshiriladi. Lekin ular tomonidan yillik moliyaviy hisobot taqdim etilmasligi sababli nazorat qilinadigan bitim to'g'risidagi xabarnomani taqdim etish muddatini yagona muddat ya'ni bitim amalga oshirilgan yildan keyingi yilning 1-apreli yoki 1-iyuni etib belgilansa soliq to'lovchilarda o'zida mavjud nazorat qilinadigan bitimlarni

3 <https://lex.uz/uz/docs/-5800112>



to'liq qamrab olishiga qo'shimcha vaqt berilgan, noaniqliklarning oldi olingan hamda soliq to'lovchilarga teng sharoitlar yaratilgan bo'lar edi.

2. Soliq to'lovchida nazorat qilinadigan bitim mavjud bo'lgan holda xabarnoma taqdim etilmagan bo'lsa, tekshiruv o'tkazish imkoniyati mavjud emas. Shuningdek, xabarnoma taqdim etmaganlik uchun javobgarlik chorasi ham belgilanmagan.

Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, soliq organlari nazorat qilinadigan bitim mavjud ekanligini aniqlagan taqdirda ham tekshiruv o'tkazilishi mumkinligi bo'yicha tegishli o'zgartirishni Soliq kodeksiga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Soliq kodeksining 337-moddasiga muvofiq tovarlarni (ishlarni) eksportga realizasiya qilishdan olingan foydaga foyda solig'ining 0 % miqdoridagi stavkasi belgilangan (Bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrdagi PF-5587-son Farmoniga ilovada tasdiqlangan tovarlar mustasno).

Bunda tovarlar va xizmatlar o'zaro aloqador bo'lgan shaxslar o'rtasida bozor narxidan past narxlarda sotilishi hamda Soliq qo'mitasi tomonidan transfert narx belgilanishi natijasida to'liq olinmagan daromad summasi aniqlanganda ham eksportga 0 % stavka qo'llanilishi oqibatida soliq hisoblanmasligiga olib keladi. Mazkur nomutanosiblikni bartaraf etish maqsadida Soliq kodeksining 337-moddasiga "tovarlar (xizmatlar) eksport qilinda transfert narx belgilanishi natijasida to'liq olinmagan daromadlar summasiga" 0% miqdoridagi stavka emas balki foyda solig'ining bazaviy stavkasini (15%) qo'llashni joriy qilish lozim. Sababi amaliyotda eksport qiluvchi subyektlar tomonidan olinadigan foydani boshqa soliq yuki past bo'lgan mamlakatlarga olib o'tish maqsadida tovar(xizmat)larni past narxlarda respublikadan olib chiqishga hech qanday to'siq mavjud emas.

4. Soliq kodeksining 473-moddasida maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari foyda solig'ini to'lashdan o'zi kiritgan investisiyalar hajmiga qarab:

3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha bo'lgan miqdordagi investisiyalar uchun – 3 yil muddatga;

5 million AQSh dollaridan 15 million AQSh dollarigacha bo'lgan miqdordagi investisiyalar uchun – 5 yil muddatga;

15 million AQSh dollari va undan yuqori miqdordagi investisiyalar uchun – 10 yil muddatga ozod etilishi belgilangan.

Ushbu soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o'rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investisiya kiritish to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Amaliyotda Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi tomonidan olinadigan foydani boshqa soliq yuki past bo'lgan mamlakatlarga olib o'tish maqsadida ishlab chiqarilgan tovar(xizmat)larni past narxlarda respublikadan olib chiqishga hech qanday to'siq mavjud emas. Mazkur turdagi holatlarning oldini olish maqsadida tovarlar (xizmatlar) bozor narxidan past (yuqori) narxlarda sotilishi (xarid qilinishi) yuzasidan transfert narx belgilanishi natijasida to'liq olinmagan daromadlar summasi bo'yicha imtiyoz qo'llanilmasligi yuzasidan o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Soliq kodeksining 187-moddasiga muvofiq taqqoslanadigan iqtisodiy shartlarda (tijorat shartlarida) amalga oshiriladigan faoliyat natijalari bo'yicha rentabellikni hisob-kitob qilish yuridik shaxs moliyaviy hisobotining ma'lumotlari asosida quyidagi shartlarga bir vaqtda rioya qilinganida amalga oshirilishi mumkin:

1) yuridik shaxs taqqoslanadigan faoliyatni amalga oshiradi va u bilan bog'liq taqqoslanadigan vazifalarni bajaradi. Faoliyatning taqqoslanishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasnifida, shuningdek xalqaro va boshqa tasniflarda nazarda tutilgan iqtisodiy faoliyat turlarini hisobga olgan holda aniqlanishi mumkin;

2) yuridik shaxs sof aktivlarining umumiy miqdori rentabellik hisob-kitob qilinadigan bir necha yildan oxirgi yilning 31 dekabri holatiga ko'ra moliyaviy hisobot ma'lumotlari bo'yicha manfiy hisoblanmaydi;

3) yuridik shaxs rentabellik hisob-kitob qilinadigan bir necha yildan bir yildan ortiq davrdagi moliyaviy hisobot ma'lumotlari bo'yicha sotuvlardan zararlarga ega bo'lmaydi;

4) yuridik shaxs 25 foizdan ortiq bo'lgan ulush bilan boshqa yuridik shaxs faoliyatida bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etmaydi hamda bevosita ishtirok etish ulushi 25 foizdan ortiq bo'lgan ishtirokchi (aksiyador) sifatidagi yuridik shaxsga ega bo'lmaydi.

Rentabellik oralig'ini aniqlash chog'ida, agar bitimlar nazorat qilinadigan bo'lmasa, taqqoslanadigan kamida to'rtta bitim, shu jumladan soliq to'lovchi tomonidan amalga oshirilgan bitimlar natijalari bo'yicha yoxud taqqoslanadigan kamida to'rtta yuridik shaxsning moliyaviy hisoboti ma'lumotlari asosida aniqlanadigan rentabellik ko'rsatkichlaridan foydalanilishi belgilangan bo'lsa-da, aynan shu moddaning o'zida "yuridik shaxs 25 foizdan ortiq bo'lgan ulush bilan boshqa yuridik shaxs faoliyatida bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etmaydi hamda bevosita ishtirok etish ulushi 25 foizdan ortiq bo'lgan ishtirokchi (aksiyador) sifatidagi yuridik shaxsga ega bo'lmaydi" degan talab qo'yilmoqda. Bu bilan yuqoridagi norma bilan quyida kelgan norma bir-biriga zid bo'lmoqda hamda bu amaliyotda juda ko'plab muammolarga sabab bo'ladi.



Mazkur Kodeksdagi bir-biriga zid normani to'g'rilash uchun 4-banddagi 25 % so'zi 20 % etib o'zgartirilsa, holat to'g'rilangan bo'ladi.

5. Yana bir muammo shundan iboratki, Soliq kodeksida simmetrik tuzatish tushunchasi mavjud emas. Bu bilan, 2 ta rezident o'rtasidagi nazorat qilinadigan bitim bo'yicha soliq nazorati o'tkazilishi natijasida qo'shimcha soliq hisoblanadigan bo'lsa, mantiqan o'sha daromad summasi bo'yicha 2 ta subyektdan ham soliq olingan bo'ladi. Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun Soliq kodeksiga simmetrik tahrirlash bo'yicha normani kiritish zarur bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Nazorat qilinadigan bitimi mavjud bo'lgan holda bu haqidagi xabarnomani taqdim etmaganlik uchun javobgarlikni belgilanishi va nazorat qilinadigan bitim to'g'risidagi xabarnomani taqdim etish uchun yagona muddatning o'rnatilishi soliq nazoratini amalga oshirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

2. Soliq kodeksining 187-moddasiga rentabellikni hisob-kitob qilishda yuridik shaxs 25 foizdan ortiq bo'lgan ulush bilan boshqa yuridik shaxs faoliyatida bevosita va (yoki) bilvosita ishtirok etmaydi hamda bevosita ishtirok etish ulushi 25 foizdan ortiq bo'lgan ishtirokchi (aksiyador) sifatidagi yuridik shaxsga ega bo'lmaydi degan qoidadagi 25 foizni 20 foiz etib o'zgartirish yuzasidan taklif ishlab chiqildi.

3. Soliq kodeksiga taraflaridan biri O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo'lgan o'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi bitimlarni nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari deb e'tirof etilishi to'g'risida o'zgartirish kiritish va bunda bitimlar bo'yicha daromadlarning tegishli kalendar yildagi summasi bir milliard so'mdan ortiq bo'lishini inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.
2. Б.А.Хасанов. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт. Монография. Т.: "Молия", 2003., б. 154.
3. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (янги таҳрири). 176-178 моддалар. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон; 11.03.2020 й., 03/20/607/0279-сон. www.lex.uz/docs/4674902.
4. Соя-Серко А.А. Трансфертное ценообразование: на что нужно обратить внимание аудиторам. www.cyberleninka.ru/article/n/transfertnoe-tsenoobrazovanie-na-chto-nuzhno-obratit-vnimanie-auditoram (мурожаат қилинган сана: 17.04.2020)
5. Аврова И.А. (2007) Управленческий учет. – М.: Бератор-паблишинг. – 324с.
6. Богатин Ю.В. (2007) Управленческий учет: информационное обеспечение рациональных плановых решений фирмы. – М.: Финансы и статистика. – 512 с.
7. Друри К. (2003) Управленческий учет для бизнес-решений: Учебник; Пер. с англ. М.:ЮНИТИ-ДАНА. – 655 с.
8. Попова Г.Л. (2014) Классификация формализованных методов оценка
9. налогового потенциала. Экономический анализ: теория и практика.34 (385) –с.44-55.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

